



ENERGETIKA SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**QUYOSH ENERGIYASI QURILMALARINI
MONTAJ QILUVCHILAR, TEXNIK
XIZMAT KO'RSATUVCHILAR
VA TA'MIRLOVCHILAR**



“Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qiluvchilar, texnik xizmat ko’rsatuvchilar va ta’mirlovchilar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qiluvchilar, texnik xizmat ko'rsatuvchilar va ta'mirlovchilar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0109



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Mazkur kasbiy standart “Quyosh panellarini o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar”, “Quyosh qurilmalari montajchisi” va “Quyosh energiyasi bo'yicha texnik” kasblari doirasidagi mehnat faoliyatini tartibga solish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish hamda baholash jarayonlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Ushbu standart, shuningdek, tashkilotlarda kadrlar boshqaruvi tizimini takomillashtirish, xodimlarning mehnat vazifalari va malaka talablarini belgilash, shuningdek sertifikatlash jarayonlarini tashkil etishda asosiy me'yoriy asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsional-
lashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy
yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan
hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv
faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish
(xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat,
texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va
vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan
asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi
tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy
elementi;

kasbiy standartlar reestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan
kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish
muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy
va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

Zaxira quvvat (rezerv quvvat) – asosiy manbada uzilish yuz berganda energiya ta‘minotini davom ettirish uchun mo‘ljallangan qo‘shimcha quvvat.

Avariya holati – elektr tarmog‘i yoki stansiyada uskunalar ishdan chiqishi, qisqa tutashuv, kuchlanish pasayishi yoki uzilishlar bilan bog‘liq holat;

Qisqa tutashuv – elektr zanjirida to‘g‘ridan-to‘g‘ri kontakt yuzaga kelib, katta tok oqimiga sabab bo‘ladigan nosozlik.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-apreldagi “Energetika tarmog‘ida malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VMQ-244-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta‘minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to‘g‘risida”gi VMQ-13-son qarori;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (2.1-tahriri);

SHHV – Shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qiluvchilar, texnik xizmat ko'rsatuvchilar va ta'mirlovchilar	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Quyosh energiyasi qurilmalari va tizimlarini o'rnatish, ishga tushirish, texnik xizmat ko'rsatish, diagnostika qilish, ta'mirlash hamda xavfsizlik va sifat standartlariga muvofiq sinovdan o'tkazish orqali ularning barqaror, samarali va ishonchli ishlashini ta'minlash	
4.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	D seksiyasi. Elektr, gaz va bug' ta'minoti va havoni konditsiyalash; 35- Elektr, gaz va bug' ta'minoti va havoni konditsiyalash; 35.1- Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash; 35.12-Qayta tiklanadigan manbalardan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish; 35.12.2-Quyosh elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish	
5.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Quyosh energiyasi qurilmalari va tizimlarini o'rnatish, sozlash, ekspluatatsiya qilish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash hamda sinovdan o'tkazish jarayonlarida bajariladigan mehnat funksiyalari va mehnat harakatlarini, shuningdek mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, amaliy tayyorgarlik va malaka talablarini belgilaydi. Standartda, shuningdek, xavfsizlik, sifat, texnik me'yorlar va samaradorlikka oid asosiy talablar ham nazarda tutiladi.	
6.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		72335026 Quyosh panellarini o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar	3
		74110015 Quyosh qurilmalari montajchisi	3
		31134001 Quyosh energiyasi bo'yicha texnik	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
№	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	72335026 Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar	A1.3	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda ish joyini tayyorlash hamda sozlash yoki taʼmirlash ishlarini tashkil etish	A1.01.3	Montaj ishlarini boshlashdan oldin xavfsizlik choralarini taʼminlash
				A1.02.3	Montaj uchun ish maydonini tayyorlash, material va uskunalarni joylashtirish
				A1.03.3	Sozlash yoki taʼmirlash ishlarini tashkil etish uchun material, uskuna va asboblarni qabul qilish va tayyorlash
		A2.3	Quyosh energiyasi qurilmalarini sozlash yoki taʼmirlash	A2.01.3	Elektr komponentlarini ulash va yerga ulash ishlarini bajarish
				A2.02.3	Quyosh panellari va tayanch konstruksiyalarini sozlash yoki taʼmirlash
		A3.3	Quyosh energiyasi qurilmalariga texnik xizmat koʻrsatish va nosozliklarni bartaraf etish	A3.01.3	Profilaktik tekshirish va servis xizmatlarini amalga oshirish
				A3.02.3	Aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish va nosoz uskunalarni almashtirish
				A3.03.3	Servis ishlari natijalarini qayd etish va ekspluatatsiya yozuvlarini yuritish
		2	74110015 Quyosh qurilmalari montajchisi	B1.3	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda montaj ishlariga tayyorgarlik koʻrish
B1.02.3	Oʻrnatish maydonini dastlabki koʻrikdan oʻtkazish va texnik holatini baholash				
B1.03.3	Quyosh energiyasi qurilmalarini joylashtirish sxemasi va montaj loyihasi hujjatlarini oʻrganish				
B2.3	Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qilish			B2.01.3	Panellar va konstruksiya modullarini oʻrnatish
				B2.02.3	Elektr uskunalarni loyiha talablariga muvofiq oʻrnatish va ulash
B3.3	Texnik xizmat koʻrsatish va tekshirish ishlarini amalga oshirish			B3.01.3	Rejali texnik xizmat koʻrsatish ishlarini bajarish
				B3.02.3	Tizim holatini tekshirish va nazorat ishlarini amalga oshirish
B4.3	Tizimni sinovdan oʻtkazish va ishga tushirish			B4.01.3	Tizimni ekspluatatsiyaga tayyorlash va qabul qilish ishlarida ishtirok etish
		B4.02.3	Komponentlar ishlashini sinovdan oʻtkazish va natijalarni hujjatlashtirish		

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
№	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
3	31134001 Quyosh energiyasi bo'yicha texnik	D1.5	Texnik holatni baholash va hujjatlar bo'yicha texnik xulosa tayyorlash	D1.01.5	Texnik hujjatlar, sxemalar va o'rnatish materiallarini tekshirish va muvofiqligini baholash
				D1.02.5	Montaj va elektr ulash ishlarida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha texnik sabablarni aniqlash
				D1.03.5	Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha texnik xulosa va amaliy tavsiyalar tayyorlash
		D2.5	Qurilmalarni o'rnatish va elektr tizimiga ulash ishlarining texnik nazorati	D2.01.5	Elektr komponentlarini o'rnatish va yerga ulash ishlarining texnik talablarga muvofiqligini tekshirish
				D2.02.5	Aniqlangan kamchiliklar bo'yicha texnik tuzatish choralari belgilash va ijrosini kuzatish
		D3.5	Ekspluatatsiya va texnik xizmat jarayonlarini tashkil etish va diagnostika qilish	D3.01.5	Texnik xizmat ko'rsatish ishlari rejasini shakllantirishda ishtirok etish va bajarilishini nazorat qilish
				D3.02.5	Nosozliklar va ishdan chiqish holatlari bo'yicha diagnostika o'tkazish va texnik yechim ishlab chiqish
		D4.5	Tizimni sinovdan o'tkazish va ishga tushirish bo'yicha texnik tekshiruvlar	D4.01.5	O'rnatilgan komponentlar ishlashga tayyorligi va xavfsizligini kompleks sinovdan o'tkazish
				D4.02.5	Sinov natijalari bo'yicha qabul qilishga tavsiya yoki qayta ishlash bo'yicha texnik qaror tayyorlash
		D5.5	Tizimni monitoring qilish va ishlash samaradorligini tahlil qilish	D5.01.5	Panellar va nazorat tizimlaridan ishlash ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish
				D5.02.5	Samaradorlik pasayishi sabablarini tahlil qilish va tizimni yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Quyosh panellarini oʻrnatish va texnik xizmat koʻrsatish boʻyicha chilangar	
Mashgʻulot nomining kodi:	72335	
TMR boʻyicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar:	Kamida 6 oy amaliy tajriba yoki kasbiy taʼlim/trening dasturi doirasida ishlab chiqarish amaliyotini oʻtagan boʻlish tavsiya etiladi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar:	<p>nomzod 18 yoshga toʻlgan boʻlishi;</p> <p>mehnat faoliyatini sifatli bajarishga toʻsqinlik qiluvchi doimiy kasallik yoki tibbiy cheklovlar mavjud boʻlmasligi;</p> <p>ish jarayonlarini xavfsiz, aniq va sifatli amalga oshirish qobiliyati;</p> <p>texnik va tashkiliy masalalarni meʼyoriy hujjatlar talablari asosida tezkor hal etish koʻnikmasi;</p> <p>yangi texnologiyalar, innovatsion yechimlar va ilgʻor ish usullarini oʻzlashtirishga tayyorlik;</p> <p>jamoada samarali hamkorlik qilish, kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etish;</p> <p>ish sharoitida oʻzaro hurmat va konstruktiv muloqot muhitini saqlash;</p> <p>malaka va kasbiy kompetensiyalarni doimiy ravishda rivojlantirish hamda amaliyotda qoʻllashga intilish.</p>	
Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar:	<p>1) boshlangʻich professional taʼlim</p> <p>2) oʻrta maxsus taʼlim</p>	
Norasmiy va informal taʼlim bilan bogʻliqligi:	umumiy oʻrta taʼlim+norasmiy (informal) taʼlim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari:	74110013-Quyosh fotoelektrik tizimlari oʻrnatuvchisi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR boʻyicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Gidro- issiqlik, atom, shamol, quyosh elektr stansiyalar direktori (boshligʻi)
	6	Quyosh energetikasi muhandisi
	3	Quyosh qurilmalari montajchisi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
	Oʻqitish natijalari	

<p style="text-align: center;">A1.3 Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda ish joyini tayyorlash hamda montaj ishlarini tashkil etish</p>	<p style="text-align: center;">A1.01.3 Montaj ishlarini boshlashdan oldin xavfsizlik choralarini ta'minlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
		1. Ish joyidagi xavf – xatar omillarini aniqlash va baholash
		2. Xavfsiz ish bajarish uchun zarur himoya vositalari va texnik choralarni belgilash
		3. Shaxsiy himoya vositalari, moslamalar va himoya qurilmalarining mavjudligi hamda yaroqliligini tekshirish
		4. Ishchilarni xavfsizlik qoidalari va favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi bilan tanishtirish
		5. Montaj ishlarini boshlashdan oldin xavfsizlik talablariga rioya etilganligini nazorat qilish
		<p>Ko'nikmalar:</p>
		Ish joyidagi xavf – xatarlarni aniqlash va baholash
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Xavfsiz ish sharoitini tashkil etish
	Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish	
	Xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish	
	<p>Bilimlar:</p>	
	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha asosiy talablar	
	Montaj ishlarida uchraydigan xavfli va zararli omillar	
	Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari turlari hamda ulardan foydalanish qoidalari	
	Yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligi talablari	
	Favqulodda holatlarda harakat qilish va birinchi yordam ko'rsatish asoslari	
	<p style="text-align: center;">A1.02.3 Montaj uchun ish maydonini tayyorlash, material va uskunalarni joylashtirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p>
		1. Montaj ishlarini bajarish uchun ish maydonini ko'zdan kechirish va ish hududini belgilash
2. Zarur material, uskuna va asboblarni ish joyiga yetkazish va joylashtirish		
3. Asbob – uskunalarining texnik holatini tekshirish va ularni ishga tayyorlash		
4. Material va uskunalarini ish jarayoni ketma – ketligiga muvofiq tartibli joylashtirish		
5. Ish joyini montaj ishlarini bajarish uchun qulay, xavfsiz va ratsional tarzda tashkil etish		
<p>Ko'nikmalar:</p>		
Montaj ishlari uchun ish maydonini tayyorlash va tashkil etish		
Material va uskunalarini texnologik ketma – ketlik asosida joylashtirish		

		Asbob – uskunalaridan xavfsiz va samarali foydalanish
		O'lchash, belgilash va ish hududini tayyorlash ishlarini bajarish
		5. Ish joyini ratsional tashkil qilish
		Bilimlar:
		Montaj ishlarini tashkil etish asoslari
		Quyosh energiyasi qurilmalari montajida ish joyini tayyorlash qoidalari
		Montaj ishlarida qo'llaniladigan asosiy materiallar, uskunalar va asboblari
		Ish joyini tashkil etish va jihozlarni joylashtirish tartibi
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablari
	A1.03.3 Material, uskuna va asboblarni qabul qilish va tayyorlash, montaj ishlarini tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. Material, uskuna va asboblarni tegishli hujjatlar asosida qabul qilish
		2. Ularning miqdori, butligi, komplektligi va tashqi holatini tekshirish
		3. Aniqlangan nuqson, kamomad yoki nomuvofiqliklarni rasmiylashtirish va mas'ul shaxslarga xabar berish
		4. Material va uskunalarni markirovka qilish hamda saqlash talablariga muvofiq joylashtirish
		5. Asbob – uskunalarni ishga tayyorlash, jumladan tekshirish, sozlash va zarur hollarda kalibrlash
		6. Montaj ishlarini tashkil etish uchun texnik yozuvlarni belgilangan tartibda yuritish
		Ko'nikmalar:
		Qabul qilish hujjatlarini o'qish, solishtirish va tekshirish
		Nuqson, kamomad va nomuvofiqliklarni aniqlash hamda rasmiylashtirish
		Markirovka qilish, komplektlash va saqlash jarayonlarini to'g'ri tashkil etish
		Asbob – uskunalarni xavfsiz ishga tayyorlash
		Montaj ishlari bo'yicha texnik yozuvlarni yuritish
		Bilimlar:
		Montaj ishlarida qo'llaniladigan material, uskuna va asboblari turlari
		Ularni qabul qilishga oid pasport, sertifikat va boshqa texnik hujjatlar mazmuni
		Material va uskunalarni saqlash, tashish va shikastlanishdan himoya qilish talablari

		O'lchash asboblari tekshirish va kalibrlashning umumiy qoidalari
		Montaj ishlarini tashkil etishga oid texnik yozuvlar turlari va ularni yuritish tartibi.
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik
		2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish
A2.3 Quyosh energiyasi qurilmalarini montaj qilish	A2.01.3 Quyosh panellari va tayanch konstruksiyalarini o'rnatish va mahkamlash	Mehnat harakatlari:
		1. Quyosh panellari va tayanch konstruksiyalarini montaj chizmalari hamda texnik hujjatlar asosida ish joyiga tayyorlash
		2. Tayanch konstruksiyalarini belgilangan o'lcham va joylashuv bo'yicha o'rnatish
		3. Quyosh panellarini tayanch konstruksiyalariga texnologik talablar asosida joylashtirish
		4. Quyosh panellari va konstruksiya elementlarini mahkamlash vositalari yordamida ishonchli biriktirish
		5. O'rnatilgan panellar va konstruksiyalarning mustahkamligi, tekisligi hamda loyiha talablariga mosligini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Quyosh panellari va tayanch konstruksiyalarini montajga tayyorlash
		Tayanch konstruksiyalarini to'g'ri o'rnatish va tekislash
		Quyosh panellarini xavfsiz va sifatli joylashtirish
		Mahkamlash elementlari bilan ishlash va ularni to'g'ri qo'llash
		O'rnatish sifatini nazorat qilish
		Bilimlar:
		Quyosh panellari va tayanch konstruksiyalarining turlari hamda tuzilishi
		Ularni o'rnatish va mahkamlash texnologiyasi
		Montaj chizmalari, sxemalar va texnik hujjatlarni o'qish asoslari
		Mahkamlash elementlari va montaj asboblardan foydalanish qoidalari
Mehnat muhofazasi, balandlikda ishlash va texnika xavfsizligi talablari		
	Mehnat harakatlari:	
	1. Elektr komponentlari, kabellar va ulash elementlarini loyiha hujjatlariga muvofiq tayyorlash	

	<p>A2.02.3 Elektr komponentlarini ulash va yerga ulash ishlarini bajarish</p>	<p>2. Quyosh panellari, inverter, nazorat qurilmalari va boshqa elektr komponentlarini belgilangan sxema asosida ulash</p> <p>3. Kabel liniyalarini yotqizish, biriktirish va himoya vositalari bilan jihozlash</p> <p>4. Qurilmaning yerga ulash tizimini o'rnatish va ulash ishlarini bajarish</p> <p>5. Elektr ulanishlari va yerga ulash ishlarining to'g'riligi, ishonchliligi hamda xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Elektr sxemalari asosida komponentlarni ulash</p> <p>Kabel va ulash elementlari bilan ishlash</p> <p>Yerga ulash tizimini o'rnatish va tekshirish</p> <p>Elektr ulanishlarining ishonchliligini nazorat qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Quyosh energiyasi qurilmalarining elektr komponentlari va ularning vazifalari</p> <p>Elektr ulash sxemalari va ulardan foydalanish tartibi</p> <p>Kabel mahsulotlari, ulash vositalari va himoya elementlari turlari</p> <p>Yerga ulash tizimlari va ularni o'rnatish qoidalari</p> <p>Elektr xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablari</p>
	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik</p> <p>2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish</p>
<p>A3.3 Quyosh energiyasi qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish va nosozliklarni bartaraf etish</p>	<p>A3.01.3 Profilaktik tekshirish va servis xizmatlarini amalga oshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Quyosh energiyasi qurilmalarining texnik holatini belgilangan reja va yo'riqnomalar asosida ko'zdan kechirish</p> <p>2. Qurilmaning asosiy uzellari, elektr ulanishlari, mahkamlash qismlari va himoya elementlarini tekshirish</p> <p>3. Quyosh panellari yuzasi, tayanch konstruksiyalari va elektr jihozlarining ifloslanishi, shikastlanishi hamda eskirish holatini aniqlash</p> <p>4. Zarur profilaktik ishlarni bajarish, jumladan tozalash, tortib mahkamlash, sozlash va funksional tekshiruv o'tkazish</p> <p>5. Qurilmalar ish faoliyatining me'yoriy ko'rsatkichlarga muvofiqligini baholash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Quyosh energiyasi qurilmalarining texnik holatini tekshirish</p>

		Profilaktik servis ishlarini bajarish Elektr ulanishlari va mahkamlash elementlari holatini baholash Qurilmalarni tozalash, sozlash va funksional sinovdan o'tkazish Bilimlar: Quyosh energiyasi qurilmalariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi Profilaktik tekshiruv turlari va davriyligi Quyosh panellari, invertor, kabel tarmoqlari va himoya qurilmalarining ishlash prinsipi Servis ishlarida qo'llaniladigan asbob – uskunalar va o'lchash vositalari Mehnat muhofazasi, elektr xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablari
	A3.02.3 Aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish va nosoz uskunalarini almashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Profilaktik tekshiruv yoki ekspluatatsiya jarayonida aniqlangan nuqson va nosozliklarni tahlil qilish 2. Nosozlik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarni belgilash 3. Shikastlangan yoki ishlashga yaroqsiz bo'lgan uskuna, detal va komponentlarni demontaj qilish 4. Nosoz elementlarni yangi yoki soz holatdagi qismlar bilan almashtirish va qayta ulash 5. Bajarilgan ta'mirlash va almashtirish ishlaridan keyin qurilmaning ishlashini tekshirish Ko'nikmalar: Nuqson va nosozliklarni aniqlash hamda baholash Nosoz uskuna va komponentlarni xavfsiz demontaj qilish Qurilma qismlarini almashtirish va qayta ulash Ta'mirlash ishlaridan keyin ishlash qobiliyatini tekshirish Nosozliklarni bartaraf etishda xavfsiz ishlash Bilimlar: Quyosh energiyasi qurilmalarida uchraydigan asosiy nosozliklar va ularning belgilari Nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish usullari Uskuna, detal va elektr komponentlarini almashtirish tartibi Ta'mirlash ishlarida qo'llaniladigan texnologik talablar

		Elektr xavfsizligi va himoya vositalaridan foydalanish qoidalari
	A3.03.3 Servis ishlari natijalarini qayd etish va ekspluatatsiya yozuvlarini yuritish	Mehnat harakatlari:
		1. Profilaktik tekshiruv, ta'mirlash va almashtirish ishlari natijalarini belgilangan shakllarda qayd etish
		2. Aniqlangan nuqsonlar, bajarilgan servis ishlari va qo'llanilgan materiallar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish
		3. Qurilmaning texnik holati va ish ko'rsatkichlari bo'yicha ekspluatatsiya yozuvlarini yuritish
		4. Keyingi texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash ishlari uchun tavsiyalarni rasmiylashtirish
		5. Texnik hujjatlar, servis qaydlari va ekspluatatsiya yozuvlarini saqlash tartibiga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Servis ishlari natijalarini to'g'ri qayd etish
		Ekspluatatsiya yozuvlarini belgilangan tartibda yuritish
		Texnik ma'lumotlarni tahlil qilish va rasmiylashtirish
		Nosozliklar va bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlash
		Texnik hujjatlar bilan ishlash
		Bilimlar:
		Servis va ekspluatatsiya hujjatlarining turlari
		Texnik yozuvlarni yuritish qoidalari va shakllari
	Qurilmalar ishlash ko'rsatkichlarini qayd etish tartibi	
	Hisobot va servis qaydnomalarini rasmiylashtirish talablari	
	Texnik hujjatlarni saqlash va arxivlash qoidalari.	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. O'z harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik
		2. Zarur bo'lganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		Qo'l asboblari, elektr asboblari, o'lchash va sinov uskunalari, yordamchi asboblari (narvonlar, SHHV), quyosh panellari uchun maxsus asboblari

Kasbning nomi:	Quyosh qurilmalari montajchisi	
Mashg'ulot nomining kodi:	74110	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar:	Quyosh energetikasi qurilmalarini montaj qilish, elektr-montaj ishlari yoki tegishli texnik yo'nalishlarda kamida 6 oy amaliy tajriba yoki kasbiy ta'lim/trening dasturi doirasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan bo'lish tavsiya etiladi.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>nomzod 18 yoshga to'lgan bo'lishi;</p> <p>mehnat faoliyatini sifatli bajarishga to'sqinlik qiluvchi doimiy kasallik yoki tibbiy cheklovlar mavjud bo'lmasligi;</p> <p>ish jarayonlarini xavfsiz, aniq va sifatli amalga oshirish qobiliyati;</p> <p>texnik va tashkiliy masalalarni me'yoriy hujjatlar talablari asosida tezkor hal etish ko'nikmasi;</p> <p>yangi texnologiyalar, innovatsion yechimlar va ilg'or ish usullarini o'zlashtirishga tayyorlik;</p> <p>jamoada samarali hamkorlik qilish, kasbiy muloqot madaniyatiga rioya etish;</p> <p>ish sharoitida o'zaro hurmat va konstruktiv muloqot muhitini saqlash;</p> <p>malaka va kasbiy kompetensiyalarni doimiy ravishda rivojlantirish hamda amaliyotda qo'llashga intilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	<p>1) boshlang'ich professional ta'lim</p> <p>2) o'rta maxsus ta'lim</p>	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	umumiy o'rta ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Gidro- issiqlik, atom, shamol, quyosh elektr stansiyalar direktori (boshlig'i)
	6	Quyosh energetikasi muhandisi
	3	Quyosh fotoelektrik tizimlari o'rnatuvchisi
	3	Quyosh panellarini o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar

Mehnat funksiyalarining tavsifi	
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari
<p>B1.3 Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda montaj ishlariga tayyorgarlik ko'rish</p>	<p>B1.01.3 Montaj ishlarini boshlashdan oldin xavfsizlik choralarini ta'minlash</p> <p>O'qitish natijalari</p> <p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Montaj ishlari bajariladigan hududdagi xavf – xatar omillarini aniqlash va baholash</p> <p>2. Xavfsiz ish bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini tanlash hamda tayyorlash</p> <p>3. Ish joyida ogohlantiruvchi belgilar, to'siqlar va himoya moslamalarini o'rnatish</p> <p>4. Elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va balandlikda ishlash talablari bajarilganligini tekshirish</p> <p>5. Montaj ishlarini boshlashdan oldin xavfsizlik talablariga rioya etilganligini nazorat qilish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Ish joyidagi xavf – xatarlarni aniqlash va baholash</p> <p>Himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish</p> <p>Xavfsiz ish sharoitini tashkil etish</p> <p>Xavfsizlik belgilarini va to'siqlarni to'g'ri joylashtirish</p> <p>Xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha asosiy talablar</p> <p>Montaj ishlarida uchraydigan xavfli va zararli omillar</p> <p>Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari turlari va ulardan foydalanish qoidalari</p> <p>Elektr va yong'in xavfsizligi talablari</p> <p>Favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi</p>
	<p>B1.02.3 O'rnatish maydonini dastlabki ko'rikdan o'tkazish va texnik holatini baholash</p> <p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. O'rnatish maydonini ko'zdan kechirish va uning montaj ishlari uchun yaroqliligini baholash</p> <p>2. Tayanch yuzalar, konstruktiv elementlar va ularga ta'sir etuvchi tashqi omillar holatini aniqlash</p> <p>3. Ish maydonining o'lchamlari, joylashuvi va foydalanish sharoitlarini tekshirish</p> <p>4. Aniqlangan texnik kamchiliklar, cheklovlar va xavf omillarini qayd etish</p> <p>5. Montaj ishlarini bajarish uchun maydonni tayyorlash bo'yicha zarur choralarni belgilash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>O'rnatish maydonini dastlabki ko'rikdan o'tkazish</p>

		<p>Texnik holatni baholash va kamchiliklarni aniqlash</p> <p>Tayanch yuzalar va konstruktiv elementlar holatini tekshirish</p> <p>O'lchash va vizual baholash ishlarini bajarish</p> <p>Aniqlangan holatlar bo'yicha xulosa chiqarish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Montaj maydoniga qo'yiladigan texnik talablar</p> <p>Tayanch konstruksiyalar va yuzalarning asosiy xususiyatlari</p> <p>O'rnatish maydonini baholash mezonlari</p> <p>Tashqi muhit omillarining montaj ishlariga ta'siri</p> <p>5. Texnik ko'rik natijalarini qayd etish tartibi</p>
	<p>B1.03.3 Quyosh energiyasi qurilmalarini joylashtirish sxemasi va montaj loyihasi hujjatlarini o'rganish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Quyosh energiyasi qurilmalarini joylashtirish sxemasi va montaj loyihasi hujjatlarini qabul qilish hamda ko'rib chiqish</p> <p>2. Chizmalar, sxemalar va texnik ko'rsatmalar mazmunini o'rganish</p> <p>3. Qurilmalarni joylashtirish joylari, ulash nuqtalari va montaj ketma – ketligini aniqlash</p> <p>4. Loyiha hujjatlaridagi talablar, o'lchamlar va texnik yechimlarni amaliy ish bilan solishtirish</p> <p>5. Aniqlangan nomuvofiqliklar yoki tushunarsiz holatlar bo'yicha aniqlashtirish kiritish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Montaj loyihasi hujjatlarini o'qish va tushunish</p> <p>Joylashtirish sxemalari va chizmalar bilan ishlash</p> <p>Qurilmalarning o'rnatilish ketma – ketligini aniqlash</p> <p>Texnik talablarni amaliy sharoit bilan taqqoslash</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Quyosh energiyasi qurilmalarini joylashtirish sxemalari turlari</p> <p>Montaj loyihasi hujjatlarining tarkibi va mazmuni</p> <p>Chizma, sxema va belgilarni o'qish asoslari.</p> <p>Qurilmalarni joylashtirish va montaj qilish bo'yicha texnik talablar</p> <p>Loyiha hujjatlari bilan ishlash tartibi</p>
